

AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI JISMONIY MADANIYATGA TADBIQI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17388539>

Ergashev Bahriddin Nomoz o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti.

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada axborot texnologiyalari hamda ularning jismoniy madaniyatga tadbiqi haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar

Sport, jismoniy madaniyat, barkamol shaxs, o'qituchi, o'quvchi, ta'lim, muhit, jamiyat.

So'nggi yillarda Yurtboshimiz tomonidan ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshirish borasida keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol shaxs etib tarbiyalash, ularni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash asosiy masalalaridan biri sifatida qaralmoqda. Shu o'rinda, maktab ta'limini rivojlantirishni umumxalq harakatiga aylanishi zarurligi, eng muhimi – jamiyatda o'qituvchilarning salohiyati, malakasi, o'quv jarayonini samarali tashkil etish va o'quv jarayoniga ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalari, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda maktabgacha va maktab ta'limi tizimi xodimlari o'rtasida o'zaro tajriba almashishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining dunyo taraqqiyoti darajasidagi istiqbolini ta'minlash iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalarida katta o'zgarishlar bo'lishi bilan bog'liq. Bunday o'zgarishlarda ishtirok etish insonlardan yuqori darajadagi umumiy va maxsus bilimlar, yuksak madaniyat, ma'naviyat va keng dunyoqarashni talab etadi. Ta'lim tizimini shu talablar asosida qayta qurish-jamiyatning kelajak avlod tarbiyasi sohasidagi ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Ta'limga yangicha yondashuv pedagogik jarayonga faol ta'sir etuvchi va uning samaradorligini, bir butunligini va muvaffaqiyatini belgilab beruvchi omillardan hisosblanadi. O'zbekiston ta'lim tizimining insonparvarlashuvi, demokratlashuvi va yangi texnologiyalarning kiritilishi fanlar oldiga ta'limning mazmuni, tuzilishi, rivojlanish darajasi, imkoniyatlari va texnologiyasini aniqlashdek murakkab vazifalarni qo'ydi.

Jamiyatning asosiy ijtimoiy ishlab chiqaruvchi kuchi sanalmish inson barkamolligi yoʻlida axborotlashtirish jarayonlari asosiy negiz boʻlib xizmat qiladi. U insonlarga eng zamonaviy kompyuter texnika vositalarini amaliyotda keng qoʻllash boʻyicha malakasini oshirishga va oʻzining tuganmas qobiliyatini amalda sinab koʻrishga katta imkoniyat tugʻdiradi. Insonning axborotni qayta ishlash boʻyicha imkoniyatlarini kuchaytiruvchi zamonaviy texnologiyalar bilan qurollantirish - axborotlashtirish sanoatini jadal rivojlantirishni talab etuvchi eng muxim texnik, iqtisodiy vazifa hisoblanadi. Qishloq xoʻjaligida axborot texnologiyalaridan foydalanish qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishi jarayonlariga oid axborotlar sifati, uning aniqligi, obʻektivligi, ishonchliligi va tezkorligi boshqaruv qarorlarini oʻz vaqtida qabul qilish va amalda qoʻllash imkoniyatini taʼminlaydi. Demak, axborotlashtirishning milliy tizimini shakllantirish shu kunning eng dolzarb vazifalardan biri boʻlib, jamiyat taraqqiyotining asosiy omili hisoblanadi. Axborot texnologiyalarini joriy qilishning asosiy mezonlari har bir mutaxassisning har qanday bozor munosabatlari sharoitida davlat boshqaruviga yoʻnaltirilgan muammolarini echishga qaratilgan boʻlishi kerak.

Darsda oʻqituvchining vazifasi har bir oʻquvchiga oʻz faolligini, ijodkorligini koʻrsatishga, oʻquvchining harakat va kognitiv faoliyatini faollashtirishga imkon beradigan oʻqitish usullarini tanlashdir. Yangi axborot texnologiyalari, Internetresurslardan foydalanish koʻplab muammolarni hal qilishda va jismoniy tarbiya darslarida maksimal natijalarga erishish imkonini beradi. Ishtirokchilarning sogʻligʻi va jismoniy tayyorgarligi darajasini diagnostika qilish muammolarini hal qilish imkonini beradi. Darsda taqdimotlardan foydalanish nazariy materialni batafsilroq va koʻrgazmali tarzda taqdim etish imkonini beradi, bu esa oʻquv jarayonini eng samarali qiladi. Shuningdek, taqdimot yordamida sport oʻyinlari qoidalarini, oʻyinchilarning taktik harakatlarini tushuntirish, tarixiy voqealarni, sportchilarning tarjimai hollarini rang-barang tarzda taqdim etish mumkin. Maʼlumotlarning vizual diapazoni mavjudligi uni xotirada tuzatishga imkon beradi.

Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini malakasini oshirish tizimini modernizatsiya qilishi, sport taʼlim muassaslaridagi shart-sharoitlar, yuqori malakali mutaxassislarga boʻlgan ehtiyojni oʻsib borishi sport taʼlim muassaslari faoliyati samaradorligiga taʼsir etuvchi omillarni aniqlash, ularning innovatsion faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirib borishdagi muhim muammolarni bartaraf etishga qaratilgan talablardan biridir. Jismoniy tarbiya va sport sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish hozirgi zamon talabiga aylangan. Soha mutaxassislarini kompyuter texnologiyalari boʻyicha bilim, koʻnikma, malakalari asosida sport taʼlim jarayonlari samaradorligiga taʼsir

ko'rsatuvchi omillarni aniqlashva faoliyatini takomillashtirish yo'nalishlaridagi mavjud vaziyatlarni, ehtiyoji hamda qiziqishini o'rganish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda.

Sport ta'limi muassaslarida yangi axborot texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanish orqali tizimni takomillashtirishning yangi yo'nalishlarini ochilishi gasabab bo'ldi. Sport sohasidagi ta'lim muassasalarida sport turlari bilan shug'ullanadigan o'quvchi-sportchilarni jismoniy tayyorgarlik darajasini nazorati va tahlilida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari o'rni beqiyos va hozirda ko'pchilik soha mutaxassislari buimkoniyatlardan keng foydalanmoqda. Sport sohasidagi ta'lim muassasalarining o'quv jarayonlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan mobil telefonlar, kompyuterlar, planshetlardan foydalanish uchun zarur bo'lgan axborot resurslarini yaratish bugungi kunning talabiga aylangan. Bu, ta'limning yangi shakl va usullaridan foydalanish, an'anaviy o'qitish usullariga qo'shimcharavishda yangi ta'lim shakli - axborot texnologiyalarini yaratilishiga omil bo'ldi.

Jismoniy tarbiya talabalarida axborot kompetentsiyasini shakllantirish uchun uning kasbiy faoliyatini shakllantiradigan tarkibiy qismlarni hisobga olish muhimdir. Ushbu sohadagi talabalar jismoniy tarbiya va sportda, sog'lomlashtirish jismoniy madaniyatida, o'quv jarayonini modellashtirishda va vosita harakatlarini biomexanik tahlil qilishda, sport musobaqalarini tashkil etish va qo'llab-quvvatlashda, jismoniy rivojlanish va sog'liqni saqlashda axborot texnologiyalaridan foydalanish uchun qanday imkoniyatlar mavjudligini aniq ko'rsatishi kerak. Jismoniy tarbiya yo'nalishi talabalarida ushbu ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr dasturini o'zlashtirgan bitiruvchi quyidagi kasbiy muammolarni hal qilishga qodir ekanligi qayd etilgan:

□ kasbiy faoliyat jarayonlarini rejalashtirish va tuzatish, talabalarning holatini nazorat qilish, tadqiqot natijalarini qayta ishlash, boshqa amaliy muammolarni hal qilishda axborot texnologiyalaridan foydalanish;

□ ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda jismoniy tarbiya va sportning zamonaviy rivojlanishidagi muhim muammolarni tahlil qilish va ularni umumlashtirish.

Asosiy kasbiy ta'lim dasturi doirasida tayyorgarlikning asosiy maqsadi kompetentsiyalarni shakllantirishdir. Zamonaviy tez rivojlanayotgan axborot muhitida o'z faoliyatining asosi sifatida jismoniy tarbiya talabalarining axborot kompetentsiyasini shakllantirish uchun axborot siklining fanlari asosiy rol o'ynaydi. Tadqiqotlari tahlili shuni ko'rsatdiki, hozirgi vaqtda jismoniy tarbiya talabalarini tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda oliy ta'limda axborot sikli fanlarini o'qitishning uslubiy xususiyatlari yetarli darajada aniqlanmagan.

Jimsoniy madaniyat o'qituvchilari ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari shakl va mazmunining rang- barangligi - o'quvchining qiziqishi, imkoniyati va shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqib taklif etilayotgan holatlardan tanlash imkoniyatini beradi. Bunday imkoniyat ta'lim tizimida ham o'z aksini topishi zarur. Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilari har xil sathli o'qitishni zamonaviy axborot texnologiyalari asosida tashkil etishi bunday muammoning yechimi bo'la oladi. Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilari hozirgi ta'lim muassasalarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini takomillashtirish, ta'lim jarayonida bunday texnologiyalarni qo'llashning eng muhim ko'rsatkichlaridan biri ekanligi pedagog olimlar tomonidan e'tirof etilmoqda.

Ta'lim tizimi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishining asosiy vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi, chunki umumta'lim maktablari, oliy ta'lim muassasalari insonni iqtisodiyot, madaniyat, siyosiy jihatdan hayotda qizg'in faoliyat ko'rsatish uchun tayyorlaydi. Shuning uchun ham ta'lim muassasalari bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarining pedagogik faoliyatida ta'lim-tarbiya jarayonining tayanch bo'g'ini sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Bo'lajak o'qituvchilar jismoniy tarbiya darsida masofaviy ta'lim tizimida o'qitish ustuvor sanalgan bo'lsa, hozirgi kunda jamiyatning axborotlashuvi davrida ustuvorlik online o'qishga va o'rgatishga yo'naltirilgan. Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchisi bunday maqsadlarda o'qitishning metodlari, texnologiyalarini shunday tanlashi kerakki, u o'quvchilarga nafaqat tayyor bilimlarni o'zlashtirishlarida, balki bilimlarni turli manbalardan izlash, mustaqil egallash, o'zlarida shaxsiy nuqtai nazarning shakllanishi, uni asoslashi va avvalgi egallangan bilimlardan yangilarini olishda foydalanish imkoniyatini yaratishi kerak. Bunday o'qitishni "rivojlantiruvchi" ham deb atash mumkin. Bilimlarni masofaviy o'zlashtirish fikrlashni rivojlantiruvchi muhim omil hisoblansa ham, bilimlarni har qanday o'zlashtirish yoki egallash o'quvchining fikrlashiga rivojlantiruvchi ta'sir ko'rsatmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.- T.: "Nihol" nashriyoti, 2013, 2016.-279b.
2. K.D.Yarashev. Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish. Toshkent. 1998 y. 66 6. bet.
3. Sergeev I.S. Основы педагогической деятельности: Учебное пособие. - SPb.: Piter. Seriya "Uchebnoe posobie", 2004-316 s.

4. R.S.Salomov, F.A.Kerimov. Jismoniy tarbiyada pedagogik texnologiyalar.
5. . Sayidahmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Moliya, 2003. – 172 b.